

7- SINF ADABIYOT DARSLARIDA HIKOYA MATNLARI BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Namangan viloyat Pop tuman MMT ga qarashli
10- sonli IDUM ning ona tili va adabiyot fani o'qitivchisi
Omonova Gulzoda Mirzayevna*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiyot darslarida matn bilan ishlashda foydalaniladigan interfaol metodlar haqida fikr keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Pedagogika, hikoya bilan ishlash, ta'lim, tarbiya, interfaol metod, yosh avlod, ma'naviyat.*

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko‘p zamonlardan beri ta’lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini bo‘lajak hamkasblar talabalik yillarida o‘zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo‘lishlari kerak. Yurt mustaqilligiga erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta’lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshladi. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma’naviyatini sog‘lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko‘ra mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko‘tarishning yangiyangi yo‘llari qidirilmoqda. O‘qitishning asosiy ashyolari bo‘lmish darslik, metodik qo‘llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog‘lom, aqlan barkamol, o‘z fikri hamda qarashlariga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o‘rniga ma’naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg‘ularining injaligi, uning ko‘ngil istaklari, ma’naviyat shakllantirishda milliy an’analarga tayanish lozimligiga-da diqqat qaratilmoqda.

O‘tgan asrning 60-yillarida yaratilgan “Adabiyot” o‘quv dasturlari va darsliklarida o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga doir talablar belgilangan. O‘qish malakasiga qo‘yilgan talablar ancha aniqlashtirilgan. XX asrning 70-yillariga kelib esa mazmuni va metodik apparati hayotga yaqinlashtirilgan darsliklar yaratildi. Mustaqillik ta’lim sohasidagi ko‘plab o‘zgarishlarga keng yo‘l ochdi. Chunonchi, 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Ularda ko‘satilgan vazifalar ijrosini ta’minalash borasida 1999-yilda “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari” qabul qilindi. Professor Q.Yo‘ldoshev tomonidan “Adabiy ta’lim konsepsiysi”, Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyevalar muallifligida “Adabiy ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari” tuzildi. Yangi avlod darsliklari yaratildi. 2010-, 2017-yillarda optimallashtirilgan va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanilgan DTS va o‘quv dasturlari yaratildi. Ularda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari qatori adabiy-nutqiy va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish malasalari ustuvor ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbek adabiyotida hikoya janri bugungi kunda rivojlanishning tom ma’noda eng yuqori bosqichiga chiqqanini barcha birdek anglamoqda. Ayniqsa, so’nggi yillarda hikoya

janrida ijod qilish, u orqali kundalik hayotimizning ikir-chikirlarigacha bo’lgan voqealarni ochib berish sezilarli darajada rivojlandi. Bugungi yoshlar katta hajmli roman yoki qissa o’qishdan ko’ra kichik hajmli hikoyalrni ko’proq o’qimoqda, mutolaa qilishmoqda. Demak, farzandlarimiz, yoshlarimiz hikoya o’qishga qiziqayotgan ekan, hikoya orqali ularning tarbiyasini shakllantirishga, hikoyadan to’g’ri xulosa chiqarishga urg’u berishimiz lozim. Hikoyalrning tarbiyaviy ahamiyatini ustuvor vazifa sifatida qarashimiz zarurdek. Maktab darsliklarida berilayotgan hikoyalarga alohida e’tibor qaratish, ulardan o’quvchi tarbiyasida samarali foydalanish zarur. Turli sinfda hikoyalarni o’rgatishda o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini o’stirishga, mazmunga, uzviylikka alohida e’tiborni qaratish lozim.

Matn ustida ishslash adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya fanlari nazariya ma’lumotlariga tayanilib, olib boriladi. O’qituvchi ayni jarayonda matn tahlilining asosiy bosqichlari, psixologik asoslari, o’quvchilarning o’zlashtirish xususiyatlarini ham e’tiborga olishi maqsadga muvofiq. Adabiyot darslarida badiiy asarlarning birbiridan farqli jihatlarini ajrata bilish; muallifning hayotiy voqealarni qaysi badiiy vositalar orqali aks ettirgani va obrazlarni yaratishdagi mahoratini aniqlashi hamda adabiy ma’lumotlarni o’zlashtirish asosida asarning mazmuni, g‘oyasi va ahamiyatini tushunish sari qadam qo‘yadi, muayyan vaqt orqali shu jihatlarni o’zlashtirishga erishadilar ham. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tahlili maqol, topishmoq, tez aytish, masal, ertak, dostonlardan parchalar qatori ularda qo‘llanilgan sifatlash, o’xshatish, jonlantirish kabi badiiy vositalarni o’rganish orqali amaliy tarzda aniqlashga yo‘naltiriladi. Badiiy asar tilini tahlil qilish asosida o’quvchilarda matn g‘oyasini idrok etish ko‘nikmasi ortib boradi. Masalan, bolalar uchun sevimli bo’lgan ertak janrining qiziqib mutolaa qilishinish yoki tinglanishi mazkur janrdagi asarlar tilining ta’sirchan, sodda, o’tkir sujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Shuning uchun ham ertak o‘qib bo‘linganidan so‘ng uning tili ustida ishslash o’quvchilar bilish jarayonlari rivojiga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday matn ustidagi asar ishlar o‘qib bo‘lingach, undagi badiiy til vositalari ustida ishslash bilan davom ettiriladi. Masalan, janriga ko‘ra: masallarda allegoriyani ochish undagi ko‘chma ma’noli so‘zlarga izoh berilishi bilan farqlanadi. Maqollarda aksariyat hollarda ma’no ko‘chishi; topishmoqlarda jonlantirish, o’xshatish; tarixiy asarlarda tasviriy-bo‘yoqdor so‘zlar izohlashni talab etadi.

Hikoya adabiyotda eng keng tarqalgan janr bo’lib, unda real hayot tasviri ijodkor tomonidan mahorat bilan ochib beriladi. Hikoyaning o’tkir, maroqli syujeti, voqealar rivojidagi obrazlarning harakteri o’quvchilarni mushohada qilishga undaydi. Hikoyadagi so’z va iboralarning ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi o’quvchilarning pragmatik mahorati shakllanishiga xizmat qiladi. Hikoyalarning pedagogik qimmati shundan iboratki, o’quvchilar unda to’g’rilik, halollik, mehr-oqibatlilik kabi insoniy xislatlarning mohiyatini anglab boradi. Ular hayotda ham qaysidir obrazdagi qahramondek bo’lishni, u qilgan ezgu ishlarni qilishni istaydilar, bu esa o’quvchida bosh qahramon yoki oddiy bir personajlarning xattiharakatini muhokama qilish, baholash ko’nikmasini o’stiradi

Dars o’tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o’sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda “Adabiyot” darslarining

o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz. Buning uchun hamma vaqt o‘qituvchi, o‘z o‘quvchilariga nisbatan ko‘proq shug‘ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o‘z nomiga munosib faoliyat kishisi bo‘ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg‘ulotlariga o‘quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o‘quv materiallarini, o‘zaro ishtiyoy bilan o‘rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko‘rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida oqitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

“Zigzag” metodi. Sinf o‘quvchilari 7ta guruhga bo‘linadilar va guruhi nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan o‘rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtin tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a’zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o‘quvchilari o‘zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so‘zlab bergenlaridan so‘ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganib chiqilgach o‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g‘oyalari asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So‘ngra o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘quvchilarning o‘zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

“Kungaboqar”. Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘scha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rafiyev A. , G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. E.Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish. T.,1995. – 361 b.
3. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва тақомиллаштириш усуллари. – Тошкент: Фан, 1995. – 253 б.
4. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro’z”, 2018.
5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 182 6.